



TOSHKENT SHAHRIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO‘YICHA MA’LUMOT

2022 - yil 1 - yanvar holatiga ko‘ra
(fermer va dehqon xo‘jaliklaridan tashqari)



Tadbirkorlik subyektlari iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishda muhim omildir. Ushbu soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash maqsadida, oxirgi yillarda Prezidentimizning ko'plab farmon va qarorlari qabul qilindi.

Jumladan, tadbirkorlik faoliyatini davlat ro'yxatidan o'tkazish, turli ruxsatnomalar olish va boshqa ko'plab xizmatlar tartib-qoidalari soddalashtirildi. Bu borada qulaylik yaratish uchun Davlat xizmatlari agentligi va uning hududiy markazlari tashkil etildi. Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil (Biznes-ombudsman) devoni tashkil qilindi.


Barcha hududlarda tadbirkorlar murojaatlarini qabul qilib, hal etishga ko'maklashadigan Bosh vazir qabulxonalari tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi faoliyati yo'lga qo'yildi. Tijorat banklari tomonidan tadbirkorlarga ajratilayotgan kreditlar hajmi oshdi.

Oxirgi yillarda hukumatimiz tomonidan tadbirkorlik subyektlarining faoliyatini yanada rivojlantirish va barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash maqsadida yaratib berilayotgan shart-sharoitlar va qulayliklar natijasida faoliyat ko'rsatayotgan hamda yangi tashkil etilayotgan korxonalar va tashkilotlar soni yildan-yilga sezilarli ravishda oshib bormoqda.

Korxonalar va tashkilotlar to'g'risidagi mazkur ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Davlat xizmatlari agentligi ma'lumotlar bazasi asosida, 2022 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarsiz) shakllantirildi.

Korxonalar va tashkilotlar soni


(2022 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Mamlakatimizda qulay ish-bilarmonlik muhitini yaratish va tadbirkorlikni jadal rivojlantirish borasida qator ijobiy o'zgarishlar amalga oshirilmoqda. O'z o'rnida, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish borasida ham qonunchilikda muhim qarorlar qabul qilinib, davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yishni avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich ishlab chiqilib, amaliyotga tatbiq qilinmoqda. Bu esa, aholi hamda xorijiy investorlarning o'z shaxsiy biznesini yo'lga qo'yish va rivojlantirish uchun muhim omil bo'lib xizmat qilmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - yanvar holatiga ko'ra, ming birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)



Faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni

(tashkiliy-huquqiy shakllar tasnifi bo'yicha
2022 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

4

79 177



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

3 458



Oilaviy korxonalar

469



Unitar korxonalar

12 192



Xususiy korxonalar

233



Aksiyadorlik jamiyatlari


377



Boshqa korxonalar

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



■ 2021- y. ■ 2022- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni


(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, yanvar - dekabr oylarida, birlikda)



■ 2020- y. ■ 2021- y.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar soni

(yanvar - dekabr oylarida, birlikda va o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati bilan)




Sanoat sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **1,5 foizga oshdi**



■ Kichik tadbirkorlik subyektlari ■ Mikrofirmalar ■ Kichik korxonalar





Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar

Oilaviy korxonalar



4,1 foizga oshdi



1,2 foizga kamaydi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni




O'tgan yilga nisbatan

3,7 % foizga oshdi



Xususiy korxonalar



O'tgan yilga nisbatan

11,4 foizga pasaydi




Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni

(1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

7




Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan **11,4** foizga oshdi




Kichik tadbirkorlik subyektlari




11,2 foizga oshdi



Mikrofimlar




Kichik korxonalar



Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




13,5 foizga oshdi



Oilaviy korxonalar




2,1 foizga kamaydi




Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



O'tgan yilga nisbatan **11,3** foizga oshdi



Xususiy korxonalar




O'tgan yilga nisbatan **7,8** foizga pasaydi




Savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni


(1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Kichik tadbirkorlik subyektlari




Mikrofirmalar




Kichik korxonalar




Mas'uliyati cheklangan jamiyatlar




Oilaviv korxonalar



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni



Xususiy korxonalar



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


(2022 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)


9



Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 1 -yanvar holatiga ko'ra, birlikda)





Ro'yxatdan o'tgan oilaviy korxonalar soni 2022 - yilning 1 - yanvar holatiga ko'ra 3,6 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 mingtaga yoki 5,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalar soni 3,4 mingtani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 0,2 mingtaga yoki 6,1 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021 - yilning yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni 440 tani tashkil etib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 122 taga yoki 21,7 % ga kamayganini ko'rish mumkin.


Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining tumanlar kesimidagi soni

(2022 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni

(2022 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)




Ro'yxatdan o'tgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar soni 2022 yil 1 - yanvar holatiga ko'ra 8,1 ming tani tashkil etib, ulardan 7,8 mingtasi yoki 96,9 % faoliyat ko'rsatmoqda. Bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan olganda 0,6 mingtaga yoki 9,6 % ga oshganligini ko'rish mumkin.

2021 - yilning yanvar - dekabr oylarida 1 491 ta xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi.

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha 2021 yil yanvar - dekabr oylarida, birlikda)



**Toshkent shahrida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida
faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni**
(2022 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

	Jami	<i>shundan:</i>	
		<i>qo'shma korxonalar</i>	<i>xorijiy korxonalar</i>
Rossiya Federatsiyasi	1 401	590	811
Qozog'iston Respublikasi	771	312	459
Ozarbajon Respublikasi	171	58	113
Ukraina Respublikasi	125	62	63
Qirg'iz Respublikasi	134	50	84
Tojikiston Respublikasi	95	38	57
Turkmaniston Respublikasi	62	22	40
Belarus Respublikasi	67	32	35
Armaniston Respublikasi	26	15	11
Moldova Respublikasi	16	6	10

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining davlatlar kesimida soni


(2022 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

13



Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

(1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)



O'zbekiston MDH doirasida amaldagi o'zaro savdo tartibini yomonlashtirmaydigan tamoyillarga asoslangan, to'laqonli erkin savdo hududini tashkil etish tarafdoridir. Bu MDH hududida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta'minlashda muhim omil bo'lmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi hududida MDH davlatlarining kapitali ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni oshib borayotganini inobatga olganda, ularning asosiy ulushi (jami xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar nisbatan) Rossiya Federatsiyasi 17,8 %, Qozog'iston Respublikasi 9,7 %, Ozarbayjon Respublikasi 2,16 %, Qirg'iz Respublikasi 1,7 % va Tojikiston Respublikalari 1,2 % ga to'g'ri

Tumanlar kesimida xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar soni

(2022 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

14


	Jami	shundan:	
		qo'shma korxonona	xorijiy korxonona
Toshkent shahri	7 888	3 012	4 876
<i>tumanlar:</i>			
Uchtepa	258	81	177
Bektemir	181	95	86
Yunusobod	940	377	563
Mirzo Ulug'bek	1 036	410	626
Mirobod	1 355	406	949
Shayxontohur	543	245	298
Olmazor	430	211	219
Sirg'ali	268	119	149
Yakkasaroy	1 288	433	855
Yashnobod	627	276	351
Yangihayot	110	53	57
Chilonzor	852	306	546

Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining asosiy qismi Mirobod – 1 355 ta (umumiy miqdoridagi ulushi 17,2 %), Yakkasaroy – 1 288 ta (16,3 %), Mirzo Ulug'bek – 1 036 ta (13,1 % hamda Yunusobod tumanlarida 940 tani (11,9 %) tashkil etgan. Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining eng kam qismi Uchtepa – 258 ta (3,3 %), Bektemir 181 ta (2,3 %) hamda Yangihayot 110 tani (1,4 %) tashkil etgan.

Ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2022 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra, birlikda)

15





2022 - yil 1 - yanvar holatiga ko'ra ro'yxatdan o'tgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Yunusobod – (12,6 %), Chilonzor – (12,8 %), Mirzo Ulug'bek – (11,4 %), Olmazor – (10,1 %), Shayxontohur – (9,8 %), Uchtepa – (8,8 %), Yakkasaroy – (8,6 %), Mirobod – (8,4 %), Yashnobod – (8,0 %), Sirg'ali – (5,0 %), Bektemir – (2,4 %) hamda Yangihayot tumanlarida (2,1 %) tashkil etgan.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning tumanlar bo'yicha soni

(2021 - yil yanvar - dekabr oylarida, birlikda)

2021 yil yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar tumanlar kesimida taqsimlanganda ularning ulushi Chilonzor – (12,6 %), Yunusobod – (12,0 %), Mirzo Ulug'bek – (11,8 %), Olmazor – (10,1 %), Shayxontohur – (9,8 %), Uchtepa – (8,5 %), Yashnobod – (8,4 %), Mirobod – (8,0 %), Yakkasaroy – (8,0 %), Sirg'ali – (5,8 %), Bektemir – (2,1 %) hamda Yangihayot tumanlarida (3,0 %) tashkil etgan.







2021 - yilning yanvar - dekabr oylarida yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar tumanlar kesimida taqsimlanganda Yashnobod – (8,4 %), Sirg'ali – (5,8 %), Yunusobod – (12,0%), Mirzo Ulug'bek – (11,8 %), Uchtepa – (8,5 %), Olmazor – (10,1 %), Shayxontohur – (9,8 %), Yangihayot – (3,0 %), Chilonzor – (12,6 %), Yakkasaroy – (8,0 %), Mirobod – (8,0 %) hamda Bektemir tumanlarida (2,1 %) tashkil etgan.

Tumanlar kesimida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni

(2021 - yilning yanvar - dekabr oylarida, birlikda)



Statistik ko'rsatkichlarga izohlar

Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri – axborot-ma'lumotnoma tusidagi, vaqti-vaqti bilan yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan avtomatlashtirilgan tizim hisoblanadi hamda yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi.

Ro'yxatga olingan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda yuridik shaxslarning davlat reestriga mavjud bo'lgan yuridik shaxslardir (faoliyati tugatilgan yuridik shaxslardan tashqari).

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda davlat ro'yxatidan o'tkazilgan hamda davlat statistika organlariga moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotganligi yoki tugatish jarayonida ekanligi to'g'risidagi ma'lumot kelib tushmagan yuridik shaxslardir.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar – ro'yxatdan o'tkazish organlari tomonidan belgilangan tartibda, yuridik shaxslarning davlat reestriga yangidan kiritilgan yuridik shaxslardir.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar – O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 24 avgustdagi "Iqtisodiy faoliyat turlarini tasniflashning xalqaro tizimiga o'tish chora-tadbirlari to'g'risida" 275-son qarorining 1- ilovasiga muvofiq, kichik tadbirkorlik subyektlariga ajratiladi.



Tashqi foydalanuvchilar, bevosita Davlat statistika qo'mitasining www.stat.uz rasmiy saytida real vaqt rejimida, so'ralayotgan yuridik shaxsning (STIR) kodini kiritib, axborotlarni bepul olishlari mumkinligi belgilab qo'yilgan.

Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Statistik registrlarni yuritish bo'limi
tel.: 71 203-88-31